



SHARQ VA G'ARB ADABIYOTINI TARIXIY-QIYOSIY O'RGANISH MASALALARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY KONFERENSIYA

ISSUES OF COMPARATIVE HISTORICAL
STUDIES IN EAST AND WEST LITERATURE

INTERNATIONAL CONFERENCE

24-25 MAY 2024-YIL




TSUOS.UZ



TSUOS



TSUOS.UZ



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**“SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTINI TARIXIY-QIYOSIY
O‘RGANISH MASALALARI”**

**«ВОПРОСЫ СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ
ЛИТЕРАТУР ВОСТОКА И ЗАПАДА»**

**ISSUES OF CO‘MPARATIVE HISTO‘RICAL STUDIES IN EAST
AND WEST LITERATURE**

Toshkent 2024

Mas'ul muharrirlar:

f.f.d. dots. D.Z. Muhiddinova

Tahrir hay'ati:

f.f.d. prof. R.U. Xodjaeva, f.f.d. prof. U.U. Muhibova, , f.f.d. prof. P.Kenjayeveva, f.f.d. dots. O. Turdiyeva, PhD v.b. dots. N. M. Saidova, PhD v.b. dots. N. Kabirova, PhD. G. Qosimova, kat. o'qit. Sh.T. Komilova.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024 yil may - sonli majlisi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

**UCHINCHI KENGASH. SHARQ VA G'ARB XALQLARI
ADABIYOTIDA TIPOLOGIK MASALALAR VA IKKINCHI
KENGASH. SHARQ VA G'ARB ADABIY ALOQALAR
TIZIMIDA BADIY TARJIMALARNING O'RNI**

Mannonov Abdurahim Mutalovich. Sharq xalqlari adabiyotida roman va hikoya janrlari tipologiyasiga oid ayrim mulohazalar. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....293

Almaz Ulvi Binnatova. Sultanmurad Alimovun "Lisan ut-teyr" in muqayisali poetikasi: sintez, nazirachilik va tarjumaachilik" asari haqqinda. Azarbayjan.....305

Mannonov Abdurahim Mutalovich, Hamidov Xayrulla Xudoyorovich. O'zbek va turk tillari orasida badiiy asarlar tarjimasining dolzarb masalalariga doir. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....315

Axmedova Shoira, Mizrapova Jeren. Interdisciplinary literary studies: a journal of criticism and theory peculiarities of reproducing the semantic characteristics of a pun in translation (on the example of W. Shakespeare's dramas). Buxoro, O'zbekiston Respublikasi.....321

Otajanova M.O. Turkiy xalqlar poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....329

Yormatov Isomiddin Turg'unovich. Sharq va g'arb xalqlari madaniyatining ayrim xarakterli belgilari. Angren, O'zbekiston Respublikasi.....335

Rasulova Umida. Qirg'iz va o'zbek qissalarida obrazlar mushtarakligi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....342

Prof. Anna Purna C. Literary translation as a form of in the ethnic literary relations between east and west. Hyderabad.....349

Qo'chqorova Marhabo Xudoyberganovna. Umumturkiy xalqlarning ikki namoyondasi oshiq sayroni, Maxtumquli ijodida islomiy-diniy ohanglar mushtarakligi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....360

Jovid Kholov Shodievich. Image of India in two songs of Iqbal. Penjikent, Tadjikistan.....374

QIRG'IZ VA O'ZBEK QISSALARIDA OBRAZLAR MUSHTARAKLIGI

RASULOVA UMIDA

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doctori,
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: Ijodkor olam va odamni badiiy idrok etish salohiyatiga ko'ra qissaning qaysi xilida asar yaratmasin, aniq voqelikni tasvirlashga, ba'zan fantaziya mahsulini ham dalillashga intiladi. So'z san'atkorlari ijtimoiy, maishiy hayot tasviridan tortib, tabiat sinoati, fan-texnika yutug'i, sport turlari, asr vabosiga doir mavzularda bahs yuritgani ayon bo'ladi. Asarlarda milliy o'zlik, qiyofaga ega shaxs, sarobga, soyaga aylangan kimsalar taqdiri ham talqin qilinadi. Qahramon taxayyul dunyosidagi evrilishlar ramzlar orqali turfa o'ylarni hosil qiladi.

Insoniyat ilmi ma'rifat yog'dusida shariflik matlabiga noil bo'ladi. Bu xayrli xizmat ustoz zimmasiga buyuk mas'uliyatni yuklaydi. Uning aqlu zakovati bois odamlar shuuriga dunyoviy hamda diniy ta'limot singib boradi. Shu bois yuksak salohiyatli tabarruk siymolarga mudom ehtirom ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ramz, poetika, obraz, tilsim, tabiat, janr, ilm

Abstract: According to the potential of the artistic perception of the world and man, the creator tries to describe the concrete reality, sometimes to prove the product of fantasy, no matter what kind of story he creates. As a result of our observations, it is clear that the writers debated topics ranging from the depiction of domestic life to natural science, scientific and technical achievements, sports, and the plague of the century. The works also interpret the national identity, the person with the image, the fate of those who have become miraGES and shadows. The twists and turns in the hero's fantasy world create various thoughts through symbols.

Humanity will achieve noble status in the light of science and enlightenment. This auspicious service places a great responsibility on the teacher. Due to his intelligence, worldly and religious teachings are absorbed into people's consciousness. That is why high-potential blessed figures are always respected.

Keywords: symbol, poetics, image, spell, nature, genre, science

Kirish Introduction. Kishining zimmasida muallim haqi zalvori og'ir. Yillar mobaynida ta'lim, tarbiya o'rgatgan insonning halol, mashaqqatli mehnatini qadrlagan ilmi tolib uni umri davomida unutmaydi. Ezgu maqsad yo'lida zahmat, riyozat chekkan ziyolilar doim jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar. Hozirgi qissalarda ham o'qituvchi, ustoz obrazi muayyan funksiyani bajaradi. Ular maslagi, tajribasi, sof vijdoni adiblar tomonidan teran yoritilgan.

Hazrat Navoiy ustozlik maqomini bunday lutf aylagan:

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak oson emas
oning haqin yuz ganj ila.*

Asosiy qism Main part. Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" hamda Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissalari mohiyatiga nigoh tashlansa, mushtarak jihatlar ayonlashadi. "Birinchi muallim" qissasida Duyshen obrazi vositasida halollik, odillik, zahmatkashlik xislatiga baho beriladi. Ilmi ma'rifatdan mosuvo ota-onalarni to'g'ri tashviq etib,

xarobadan binoni yolg'iz tiklab, ilm asroridan bolalarga beg'araz saboq beradi. Fidoyi Duyshen o'z hisobidan o'quv qurollari, dars jihozlari olib, puxta ilm olishga imkon yaratadi. Sabru shijoat ila bolalarga yangi dunyo ta'limotini namoyon etib, olamdagi moddiy hamda ma'naviy sarhadga, tafakkur kengliklariga sayr uyushtiradi. Ilk bora tovushu harfning salmog'i, qudratini angelayotgan murg'ak qalbga muazzam ziyo taraladi. Bolaning turmush sharoitidan voqif ustoz maktabda uning huzur, halovatni, bilim quvvatini idrok etishiga e'tibor qaratadi.

Ustoz o'z farzandi yanglig' bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatishida obrazning mantig'i oydinlashadi. U insonni qadrlagani, e'zozlagani bois barcha mashaqqatga sobir bo'ladi. Qish qahratonida suv kechib bolalarni yo'lning quruq yeriga o'tkazishi, sovuq sinfxonani isitib, darslarni astoydil o'tishi, muhimi o'quvchilar irodasini mustahkamlashga erishishi obrazning asl muddaosini belgilaydi. O'n besh yosh sag'ir Oltinoyni zolim erkak jaholatidan qutqargan muallim og'ir tan jan jarohatiga qaramay yovuzlikka barham beradi. Muhimi qarindoshdan ko'rilmagan oqibat, adolat ustoz tomonidan ro'yobga chiqadi.

Qissada kishilar o'rtasidagi savodsizlik, jaholatga qarshi ma'rifat masalasi kontrast beriladi. Odam tiriklikni, yaralishdan murod neligini anglamas ekan, haqiqat manziliga yetolmaydi. Asardagi obrazlar orasida qoloq, beburd, loqayd kimsalar qismatiga nigoh tashlansa, ularning bemantiq turmush tarzi ko'lankaga o'xshaydi. O'z farzandi kelajagiga befarq ota-onalar muallimga minnatdorlik o'rniga dashnom beradilar. Kishilar aqli noqisligi sabab haqni botildan ajrata olmaydi. Asarda muallimning olijanob, fidoyi fe'l-atvori boshqa qahramonlar e'tirofidan tiniqlashib boradi. U qurshab olgan muhitdan ayro tushmay, balki ziyo nuri ila ko'ngilga munavvarlik taratmoqqa intiladi.

Chingiz Aytmatov ijodida ramziylik, ifodaviylik matn badiiyatini to'yintirib boradi. Qahramon hayoti hamda tasavvurini ma'naviy ilinj ila oziqlantirgan teraklar obrazi poetik mazmunni istifoda etadi. Ustoz Duyshen shogirdi Oltinoy bilan tepalikka terak novdasini o'tqazishida teran tomir, uzilmas rishta chin saodat sururini ravshan ayyaydi. Yillar suroni terakka salobat bag'ishlab, kishida ishonch, qat'iyat, matonat tuyg'usini turg'unlashtiradi.

“Ko'cha-kuyda nima ko'p-daraxt ko'p, lekin bu teraklar o'zi boshqa bir olam, qandaydir xosiyatli, tili borday. Goh sohilga kelib urilgan erka to'lqinday eshitilar- eshitilmas guvillashib qo'yadi, goh jim o'ylanib qolib, sog'ina, sog'ina yuragi qon bo'lganday, allanimalarni eslab

xo'rsinib, yulqingan shamol bulut haydab, yomg'ir haydab, butoqlarini egib yuborganda, teraklar bir-biridan madad olib: sindirib bo'psan, deganday battar o'jarlik qilib, zarda bilan to'lg'anib qo'yishadi. To'rt tomoni ochiq baland tepada turishganidan, bular doimo shamol o'qiga to'g'ri kelib havoning har bir o'yiniga javob qaytarib turishgan"⁶⁸.

Adib inson siyratidagi po'rtanalarni nabotot tilsimi qobig'ida pardalaydi. Adl terak olisdan haybatu savlati, turli hodisotga dadil isyoni ila ulug'vorlik kasb etadi. Ikki terak hazin sadosi moziy haqiqatini shamol parvozi-la o'zga makonlarga eltadi, xasta qalb nolasi tiriklik holotidan kuy bastalaydi. Ramzlar qissa ichki hujayralaridan tashqi voqea manzarasiga ishora yanglig' bo'rtib ko'rinadi, so'zlar zamon ruhi, ma'naviy - ijtimoiy iqlimni sifatlashi bilan mohiyatni tiniqlashtiradi.

Asarda muallif qalb prizmasida sayqal topgan tasvirlar, shukuhli lahzalar ma'naviy, estetik ahkomlarni payvandlab boradi. Fasllar almashinuvi odam umri sahifalarini varaqlab o'tadi. Qish qahrini bahor nasimi xotira puchmog'iga uloqtiradi. Oddiy, halol, fidoyi muallim urushda qatnashgach, ancha vaqtdan so'ng ovulga, ona zaminga qaytib, pochta bo'limida faoliyatini davom ettiradi. Undan ilk saboq olgan yoshlar ulg'ayib, turli sohalarda yutuqlarga erishadi. Aslida ular ustozga tashakkur bildirib, zahmatkash odamni e'zozlashi darkor. Akademik Oltinoy ustozni zilol chashmaga mengzab, undan bahramand ko'ngil ziyoga yo'g'rilishini kashf etadi. Muallim o'zgarlar manfaati uchun jonini fido etib, kamtarona turmush kechirsa-da, uning olijanoblighi ishonch, beminnat yaxshiligi adolat hikmatidan voqif qiladi. Yozuvchi muallim obrazini adabiy qahramonlar safida bayroqdor siymo tarzida badiiy gavidalantiradi.

"Badiiy obraz- ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g'oyasi orqali sintezlashgan voqelikning inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg'u va kechinmalar timsolida alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in'ikosidan iborat"⁶⁹.

Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissasida maktab jamoasiga ironik munosabat bildiriladi. Qishloq hududi ta'lim maskanlaridagi jarayon bosqichma-bosqich fosh etiladi. Muallim dunyoqarashi, kasbiga mas'uliyat masalasi muallif hayotiy kuzatishlari asnosida rivojlantiriladi. Qissaga Abdulla Oripovning "*Muallim haqida so'zim ushbu dir, Muallim*

⁶⁸ Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978. 43-б.

⁶⁹ Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. -Т. 2004. 22-б

kamolot ichra ko'zgudir" misrasi epigraf qilib tanlangan. Adib sharafli kasb egalari hayotini ko'zguda aks ettirish borasida mozaika usulini qo'llaydi. Turli iqrор maktublari asar poetikasini to'yintirib boradi. Ulardagi manzaralar jamlanib, yaxlit tasavvurni ro'yobga chiqaradi. Voqealar rivojida inson tabiatidagi fazilatu illatlar asta-sekin fosh bo'ladi. Kundalik turmushga yangi holat, vaziyatning kirib borishi qahramonlarni o'zini taftish etishga majbur qiladi.

Adib ustoz obraziga chizgilar tortishda noodatiy lavhalarni matn poetikasiga singdirib yuboradi. Asarda fidoyi yosh yigitning sirli tashrifi ertak, afsonadagi mujda keltiruvchi ezgulik kuchlarini yodga solishi syujet voqealarini jonlantiradi. Inson g'ayritabiiy voqea hodisadan ta'sirlanib, kalava uchini axtaradi. Yosh muallim aslida ilm mahzanini uqqan, ezgu maqsadini ro'yobga chiqarishi dangasa, mas'uliyatsiz kimsalarga xush kelmaydi. Qissada muallif pichingi o'tkirlashadi, uning zamirida achchiq haqiqat bo'y ko'rsatadi.

Ma'lumki, asar qahramonlariga tanlangan ism ham muayyan poetik mazmunga ega. Nosir badiiy obrazlarga nom berishda mavqei, fe'latvoriga monand jihatlarni saralashga ahamiyat qaratadi. Maorif mudiri Erkaboev, maktab rahbari Qalqonov jamoadagi muhitni fosh qilmaslikka, muammoni imkoni darajasida hal etishga, buyruqni vaqtida ijro aylashga moslashgan obrazlar. Ularning "labbaygo'y"lik tutumi bir qancha epizodda asoslab ko'rsatiladi. Domla Xurramovich har kimdan shubhalanib, yuqori idorada huquqini ro'kach qiladigan, faqat o'z manfaatini ko'zlab, o'zgalar yutug'idan achchiqlanadigan toifa. Norxol, Boymurod kabi muovinlar ham faol tashkilotchi, ammo darsga mas'uliyat bobida sust. Bu jamoaga chin ma'noda Najot G'aybulla zarur edi. Najot ustozu shogird qismatiga loqayd bo'lmagani bois muammoni tez hamda samarali hal etadi.

"Uning aft-angorida, ust-boshida, ish faoliyatida allanechuk begonalik bor edi. Ana shu begonalik bizni hurkitib turardi⁷⁰".

Muallif qahramoni badiiy portreti vositasida kitobxon qiziqishiga javob beradi. Uning suratidan tiynatiga qadar o'zgaligi odatiy me'yor, ko'nikmaga nomuvofiq edi. Boisi, yigitni begona monand qabul qilgan pedagoglar unga moslashib, loqaydlik, beparvolik iskanjasidan xalos bo'lishni xohlamasdi. Zulmat ichra taralgan yog'du ma'nisini uqishga ojiz kishilar haqiqatga tik boqolmaydi. G'ayb o'zagi ham ma'rifat

⁷⁰ Бўрихон Л. Титраётган тоғ. -Т. Гафур Фулом номидагинашриёт матбаа ижодий уйи. 2018. 234-б.

olamidan biqiq muhitga tashrif buyurgan insonning muddaosiga munosib belgilangan.

Ijtimoiy hayotda mo'jizaning sodir bo'lishi astalik bilan qabul qilinadi. Endi jamoa ilmiy doiradan yiroqligini, farzandlar kelajagiga rahna solayotganini tushunib yetishga majburligi anglashiladi. Nosir kulgi, yumor asnosida personajlar harakatiga aniqlik kiritadi. Darsliklarning direktor xonasida saqlanishi, jihozlangan geografiya xonasining zarur tashriflar uchun qulflanishi lavhalari firibgarlik holatini ravshan ko'rsatadi. Qissada Najot obrazi muallim imkoniyati, izlanishi, mas'uliyati kabi mezonlarga munosibliigi borasidagi qarashlar tasvirlanadi. Jamiyatdagi yangilanishlar inson shuuriga ta'sir qiladi, shu ma'noda ilmu ma'rifat jarayonidagi sustkashlik oqibatida barcha aziyat chekadi.

Badiiy asarda muallim siymosi markaziy qatlamdagi voqealar rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan qahramon qismatidagi burilish pallasida ustoz o'giti yetakchi omilga aylanadi. Shoyim Bo'taevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida epizodik lavha ziyoli qiyofasiga chizgi tortadi. O'spirinlar o'g'irlik sabab sudda javobgarlikka tortilganda o'qituvchi ular xatosi, aybini kechirishni so'rab bunday nutq irod aylyadi:

"Bu bolalarning gunohlaridan o'tishlaringizni so'rayman. Ularning o'zlarisiz bu qilg'ilikni ikkinchi qilmaymiz, deb o'ylanib o'tirishipti⁷¹".

Bu oqko'ngil o'qituvchi, o'quvchilar yuzinchi marotaba bo'lsin-da, biron gunoh ish qilsalar ikkinchi qilmanglar, deb kechib yuboraverardi, bunday avflarning adog'i ko'rinmasdi, - deya roviy qahramon ma'naviy qiyofasini to'ldirib boradi. Aslida kechirimlilik bois yoshlarga imkon berish tilagini barchaning huzurida qayg'urib aytayotgan inson ularning mahbuslikdan so'ng qalbi toshga aylanishidan xavotirda edi. Ustoz halokat yoqasidagi yigitlarga madad qo'lini cho'zarkan, atrofdagilar istehzosiga sabab bo'ladi. Ziyoli toliblari taqdiriga loqayd qaray olmasdi. Bedor qalb bilan insonni himoya etishga kirishgan muallim izza bo'lsada, vujudini o'rtayotgan g'alayonni yuzaga chiqarishdan orlanmaydi. Aksincha bemehr, notavon amaki yoshlar xatosini kechirishni xohlamaydi.

Muallif inson fe'lidagi noqislikni voqealar rivojida sharhlab boradi. Muallim mushkul vaziyatda e'tiqodiga qarshi borolmay, mudom azob chekayotgan, aybini tushungan bolalar holatini idrok etishga qodirligini

⁷¹ Бўтаев Ш. Ҳаёт. -Т. Шарқ. 2000. 355-б.

namoyon etadi. O'zgalar tashvishidan, yoshlar baxtsizligidan bezovta qalb adashganlarga, qalbi basirlarga ezgulik yo'lini ko'rsatishga intilsada, bari zoe ketadi.

“San'atkor o'zini hayajonlantirgan g'oya va obrazlarini ifodalash istagini ularning hayotiyiligiga, estetik ahamiyatiga, kitobxonni ishontirishga bo'lgan intilishidan ajratib qaramaydi, barcha bayon usullari, lirik iboralari, dramatik konflikt yo'nalishi kitobxonni qiziqtirishini ham nazarda tutadi”, -deydi adabiyotshunos M.Xrapchenko⁷².

Natija va muhokama Results and discussions

Ma'lumki, Alloh taolo odamni tuproqdan yaratishni ixtiyor etgan. Xokisor yerdan oliy mavjudot bino bo'lgan. Unga nabototu hayvonot ne'matidan bahramandlik nasib bo'lgan. Inson yer, tuproq misoli halim bo'lib, sharaflil maqomni yoddan chiqarmasligi darkor. Yer ustida tiriklik sururini his etib, foniy dunyo nayrangidan holi bo'lgani durust. Inson borki, ko'nglida muqaddas tuyg'u, oliy intilish mavjud. Hayotga mazmun bag'ishlash, umrni xayrli ishlarga safarbar aylash chin farog'at sanaladi. Ijodkorlar muallim, ustoz obrazlari vositasida odamzotga ma'rifat hidoyatini ulashuvchi shaxslarni talqin etishni sharaf hisoblaydilar.

Xulosalar Conclusions

Badiiy asar javhariga singdirilgan g'oyalar kitobxon taxayyyul qudratini mustahkamlagan. Turkiy xalqlar tarixi, adabiyotida ustoz maqomi baland sanalgan. Zamonaviy asarlarda ham millatning ma'naviy yuksalishida muallimling maslagi, axloqiy, falsafiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Qissalarda ilmu ma'rifatning sarbonlari ahkomi ishoraviy mazmunni kuchaytirib borgan. Ularning zakovati, salohiyati kelajak avlodni yog'du yanglig' hidoyatga boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. -T. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978. 43-b.
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. -T. 2004. 22-b
3. Bo'rixon L. Titrayotgan tog'. -T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2018. 234-b.
4. Bo'taev Sh. Hayot. -T. Sharq. 2000. 355-b.

⁷² Xrapchenko M. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. -М. 1970. С 108.

5. Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. -М. 1970. С 108.
6. Айтматов Ч. Танланган asarlar. -Т. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978, 102-b..
7. Umida, R. (2024). The relevance of rhythm in prose fiction. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
8. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern StoryWriting. *SPAST Reports*, 1(1).